

“FARG’ONA SHAHRINI TEXNOGEN OMILLAR TA’SIRIDA IFLOSLANISHI

Axmedov Raxmiddin Ilhomovich

Andijon QXAI assistenti

Annotatsiya: *Bu tezida Yurtimizda va Farg’ona shahrida ekologik holatni va atmosfera havosini muvozanatini buzilishi uni oldini olish chora-tadbirlari va bu borada amaliyotgan tadbir qilinayotgan me’yoriy hujjatlar haqida ilmiy ma’lumotlar berib o’tilgan*

Kalit so’zlar: *Texnogen omil, transport chiqindisi, qonun va qonunosti hujjatlar, fan texnik taraqqiyoti, gazlar miqdori, ifloslanish darajasi, ishlab chiqarishning ortishi*

KIRISH

Fan va texnika taraqqiy etgan hozirgi davrda ishlab chiqarish kuchlari tez o’sib, xom ashyoga bo’lgan talab ortib bormoqda, natijada tabiiy resurslardan foydalanishda va uni ishlatishda qator nuqsonlarga yo’l qo’yilish hollari kuzatilmoqda. Atrof-muhitning ifloslanishida suv, tuproq, atmosfera havosi, o’simlik, hayvonot dunyosiga ta’siri oqibatida insonlarda turli xil kasalliklarni kelib chiqishi va tarqalishiga sabab bo’lmoqda. Bu hol birgina davlatni emas, balki barcha davlatlarni o’zaro va xalqaro hamqorlikda bo’lishini talab etadi. Ma’lumki sanoat ishlab chiqarish ko’p miqdorda atmosferani ifloslanishini vujudga kelishi bilan bog’liq.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2030 yilgacha bo’lgan davrda O’zbekiston Respublikasining “Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi 2019 yil 30 noyabrda PF-5863-sonli Farmonining 1-ilova, V-bobida atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida belgilangan yo’nalishlar, ya’ni ifloslantiruvchi moddalarni atmosfera havosiga chiqarilishini kamaytirish maqsadida, amaldagi ishlab chiqarish quvvatlarining atmosfera havosini ifloslantiruvchi stasionar manbalarida samaradorligi 95 foizdan past bo’lmagan chang va gazlarni tutib qoluvchi qurilmalar qo’llanilishini ta’minlash kerakligi ko’rsatib o’tilgan.

DOLZARBLIGI

Ushbu magistrlik dissertatsiyasi atmosferaning texnogen omillar ta’sirida ifloslanishini kuzatish, olingan ma’lumotlarni solishtirish bilan tahlil qilishga qaratilgan. Texnogen omillarning atmosferaga ta’sirini o’rganishda Farg’ona shahar “Besh Bola Beton” MChJ va Farg’ona yog’moy korxonasi va shaharning markaziy ko’chalaridan o’tgan avtomobillar tadqiqot o’bektini sifatida olindi. Texnogen omillarning atmosferaga ta’sirini o’rganish ishning predmetini belgilaydi.

Sanoat korxonalari va avtotransportlarning atrof-muhitga ta’sirini o’rganish va kerakli chora tadbirlar belgilashdan iborat.

Buning uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Texnogen omillarning atrof-muhitga ta’siriga doir ma’lumotlarni o’rganish.
2. Atrof-muhitga texnogen omillarning salbiy ta’siri va uning oqibatlarini tahlil etish.



3. Texnogen omillar ta'sirini kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish

TADQIQOTNING ASOSIY MASALALARI

Mazkur dissertatsiya ishida texnogen omillar ta'sirida atrof-muhit holati, atmosferani texnogen omillar ta'sirida ifloslanish muammolari, atmosferani ifloslantiruvchi texnogen moddalarning tarqalishi va tabiiy muhitga salbiy ta'sir etish holatlari, Farg'ona shahri atmosfera havosining monitoringi, Farg'ona shahar atmosfera havosini harakatlanuvchi manbalar orqali ifloslanishi, texnogen omillarning atmosferaga ta'sirni kamaytirish chora tadbirlari, noqulay ob-havo sharoitida atmosfera havosini muhofaza qilish, sanoat shaharlarida ekologik vaziyatlarni yaxshilash chora-tadbirlari, atmosferani chiqindilar orqali ifloslanishdan saqlashning huquqiy masalalari yoritilgan. Dunyo olimlari S.L.Davidova, V.I.Tagasov (2002 y) tomonidan turli kimyoviy moddalarning xavflilik nuqtai nazardan stress-indeks ko'rsatkichlari belgilangan. Bunga ko'ra pestitsidlar – 140, og'ir metallar – 135, AES chiqindilari – 120, qattiq shakldagi zaharli chiqindilar – 120, metallurgiya materiallari – 90, tozalanmagan oqava suvlar – 85, oltingugurt (II) oksidi – 72, neft – 72, kimyoviy o'g'itlar – 65, organik maishiy chiqindilar – 48, azot oksidlari – 42, saqlanayotgan radioaktiv chiqindilar – 40, shahar chiqindilari – 40, uchuvchan uglevodorodlar – 18, uglerod oksidi – 12 indeks ko'rsatkichlari bilan belgilangan. Farg'ona viloyati Farg'ona tumanida “Rubber Gold” MCHJ yiliga 528 tonna eski avtoshina va boshqa rezinalarni qayta ishlash quvvatiga ega bo'lib, rezina granula va rezina to'shamalar ishlab chiqarmoqda. Bu yerda sport maydonlarining ustki qoplamasi, turli qoplama koshinlar, gilamchalar, rezina qo'shiladigan boshqa buyumlar tayyorlanib, eng muhimi ekologik tozaligi, xavfsizligi, elastikligi bilan sportchilarni jarohatlardan asraydi. Farg'ona shahrida 2014-2022 yillar davomida atmosferaga sanoat korxonalarini tomonidan chiqarilgan zararli moddalar miqdori o'rganilganda, 2016, 2017, 2018, 2019 yillar davomida o'rganilgan hududlarda yuqori ko'rsatkichda bo'lib, 2020, 2021, 2022 yillarda bu raqam pasayganligi kuzatildi. 2016 yilda 96,67 ming tonna bo'lsa, 2018 yilda 47,495, 2022 yilga kelib 30,1131 tashkil etdi.

Atmosferaga chiqarilgan zararli moddalardan ushlab qolinishi 87,07% tashkil qilgan. Farg'ona shahar “Besh Bola Beton” MChJ tomonidan jami 1334,55 ming tonna qattiq moddalar, 300,04 gazsimon va suyuq, 1034,5 boshqa gazsimon va suyuq moddalar, 309,78 atmosferaga chiqarilgan.

Farg'ona shahrining ichki transport oqimi yo'llari xaritasini sinchiklab o'rganish natijasida transport qatnovi o'ta faol bo'lgan Yuksalish va Quvasoy ko'chalarining kesishmalari, Axunbabaeva va Sohibqiron Temur ko'chalarining kesishmalari yo'llar, tadqiqot obyekti sifatida tanlab olindi. Bir soat davomida avtotransportlar harakati hisobga olindi. Yengil turdagi transportlar Yuksalish va uvasoy ko'chalarining kesishmalari 50940 donani tashkil etdi.



Farg‘ona shahrida avto yo‘llaridagi avtotransportlar to‘g‘risida

MA‘LUMOT

(1-jadval)

T/r	Tajriba o‘tkazilgan ko‘chalar nomi	Tajriba o‘tkazilgan vaqt (soat)	Yengil turdagi transportlar	Yuk tashuvchi transportlar	Avto buslar
1.	Yuksalish va Quvasoy ko‘chalarining kesishmalari	07 ⁰⁰ dan 08 ⁰⁰ gacha	50 940 ta	368 ta	480 ta
.	Axunbabaeva va Sohibqiron Temur ko‘chalarida	08 ²⁰ dan 09 ²⁰ gacha	19 620 ta	-	780 ta

1 sutkada 1 ta transportdan atmosferaga chiqadigan zaharli moddalar miqdori

(gr)

(2-jadval)

Kimyoviy birikmalar	Yuk mashinasi	Yengil mashina	Avtobus (dizel)
CO ₂	502,2	225,8	227,9
NO ₂	70,4	43,8	17,7
C	19,3	-	3
SO ₂	4,5	-	0,7
Pb	0,2	0,27	0,08

Atmosferani chiqindilar orqali ifloslanishdan saqlashning huquqiy jihatlari. Hozirgi vaqtda atmosferani ifloslanishini huquqiy jihatdan kamaytirish borasida, O‘zbekiston Respublikasida bir qancha qonun va qonun osti hujjatlari mavjud. Ya‘ni 1996-yil 27-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 30 ta moddadan iborat qonun qabul qilingan. Ushbu qonunga asosan bir qancha qonun osti hujjatlari ishlab chiqilgan bo‘lib, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuniga 2019 yil 13 martda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Xulosa shuki, Atmosferaning ifloslanishi texnogen jarayonlardan kelib chiqib, tabiiy muhit va biologik tirik organizmlar uchun yot bo‘lgan fizik yoki kimyoviy moddalarning miqdoridan ortishi va muhit holatiga salbiy ta‘sir qilishdan iboratdir. Atmosferani ifloslanishdan oldini olish uchun har bir sanoat korxonalarini uchun belgilangan me‘yoriy



hujjatlarni ishlab chiqish va shu me'yoriy hujjat bo'yicha doimiy tegishli tashkilotlar tomonidan nazorat qilib borish hamda har bir ishlab chiqaruvchi korxonalarda alohida ekolog mutaxassis lavozimlari bo'lishi kerak .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yu.V.Novikov, R.I.Beknazov Okrujayushaya sreda i chelovek. M. Vishaya shkola. 1980.
2. Yu.Sh.Novikov. Oxrana okrujayushey sredi. Toshkent. “O'qituvchi”, 1993.
3. Sh.Otaboev, M.Nabiev. Inson va biosfera. Toshkent. “O'qituvchi”, 1995.
4. A.Ergashev, T.Ergashev. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. Toshkent. “Yangi asr avlodi”, 2005.
5. W.W.W. uznature.uz.
6. W.W.W. econews. uznature.uz.

